



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-dekabr

## RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 2621,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 199,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 3128,1 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora- tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushini oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2621,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (28,9 %) tashkil etadi.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida oldingi yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (325,0 mlrd. so'mga) savdo xizmatlari (100,4 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (54,8 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar–jami</b>	<b>2621,9</b>	<b>118,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	154,3	111,2
Moliyaviy xizmatlar	636,1	199,1
Transport xizmatlari	453,3	102,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>424,6</i>	<i>102,0</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	56,5	107,3
Savdo xizmatlari	758,1	102,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	67,5	101,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	120,1	109,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	39,5	108,7
Ijara xizmatlari	56,7	101,1
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	71,7	104,5
Shaxsiy xizmatlar	63,3	101,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	49,1	104,0
Boshqa xizmatlar	95,7	106,8

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2621,9</b>	<b>118,4</b>
<i>shaharlar:</i>		
Guliston shahri	1413,5	131,9
Shirin shahri	33,5	110,0
Yangiyer shahri	193,3	107,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	107,9	109,9
Guliston tumani	81,3	108,6
Mirzaobod tumani	128,4	112,6
Oqoltin tumani	59,9	107,9
Sardoba tumani	74,6	100,9
Sayxunobod tumani	115,1	87,1
Sirdaryo tumani	313,4	108,1
Xovos tumani	101,0	108,5


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (199,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (109,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,7 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Viloyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar- dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 758,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 28,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 100,4 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 70,9 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 23,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egalladi.



Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 636,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 199,1 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (92,3 %) katta salmoqqa egadir.



2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 56,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 107,3 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,0 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 120,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.


### Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslanganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 34,3 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 3128,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 659,5 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 116,2 % qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm




Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (15740,6 ming so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 130,3 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (841,0 ming so'm), Xovos (1068,1 ming so'm) va Guliston tumanlarida (1136,5 ming so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (130,3 %), Shirin shahrida (110,0 %) va Mirzaobod tumanida (109,6 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel: (71) 230-86-31